

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

XALIKCHAYEVA SADOKAT ILXOMJONOVNA

**SOLIQQA TORTISH TIZIMIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH
TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Xalikchayeva Sadokat Ilhomjonovna

Soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish3

Халикчаева Садокат Илхомжоновна

Совершенствование порядка определения налоговой базы в системе
налогообложения27

Khalikchaeva Sadokat Ilkhomjonovna

Improving the procedure for determining the tax base in the tax system53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список о опубликованных работ

List of published works58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

XALIKCHAYEVA SADOKAT ILXOMJONOVNA

**SOLIQQA TORTISH TIZIMIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH
TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.1.PHD/Iqt2014 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Quziyeva Nargiza Ramazonovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Jumayev Shuxrat
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori


Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat
boshqaruvi akademiyasi


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «14» Dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~64~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «30» NOYABR kuni tarqatildi.
(2023-yil «30» NOYABR dagi 64 raqamli niestr bayonnomasi).


M.P. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor


U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., professor


B.K. Tuxliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
rais o'rinbosari, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda neoglaballashuv jarayoni kuchayib borayotgan bir sharoitida soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbayi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi asosiy dastak bo'lsa, soliq bazasi va uni aniqlash tartibi, mamlakat iqtisodiyotining kuzatiladigan muhim ko'rsatkichlardan biridir. "OECD mamlakatlari orasida (2022) soliqlarning YaIMga nisbati Fransiyada 45,1 %ni, Buyuk Britaniyada 33,1 %ni, AQShda 26,6 %ni, Daniyada 46,9 %ni, Norvegiyada 42,2 %ni, Shvetsiyada 42,6 %ni tashkil etadi"¹. Biroq soliq bazasini aniqlash tartibi bilan bog'liq soliqlardan qochishda soliq bazasining yemirilishi, bu jarayonning murakkabligi, turli hududlar doirasida turlicha ekanligi soliq bazalarini solishtirish imkonini qiyinlashtirishi muammolarini o'rganishga zarurat tug'dirmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari soliq amaliyotida soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish bilan bog'liq soliq hisoboti va axborot almashinuvining umumiy standartlarini ishlab chiqish, soliq qonunchiligining tushunish darajasini soddalashtirish choralari, soliq organlari potensial soliqdan bo'yin tovlash va qochish holatlarini aniqlashga yordam beruvchi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni yaxshilash texnologiyalaridan foydalanish, soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlik va qochish uchun jazolarni kuchaytirish, mamlakatlar soliq qonunchiligidagi tafovutlarni kamaytirish va turli yurisdiksiyalar bo'yicha soliq solish bazalarini solishtirishni osonlashtirish uchun soliq tizimlarini uyg'unlashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar ustuvor vazifalar hisoblanadi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda soliq bazasini aniqlash tartiblari davlat soliq siyosatini amalga oshirishning mustaqil huquqiy vositasi hisoblanib, bir tomondan davlat daromadlarini shakllantirishning asosiy manbayi bo'lsa, ikkinchi tomondan, jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlarining soliq to'lash qobiliyatini to'g'ri baholash va soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev "Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish "yashirin" iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur. Buni samarali soliq ma'muriyatchiligi orqali bartaraf etish va byudjet barqarorligini ta'minlash mumkin. Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifamizdir.", deya soliq bazasini aniqlash tartiblarini yanada mukammallashtirishga ishora etadi². Shuningdek, soliq bazasini aniqlashning samarali tartibi iqtisodiy o'sish va investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ayrim guruhlar yoki tarmoqlar uchun ortiqcha soliq yuklarining oldini olishga yordam berib, adolatli va shaffof soliq tizimi orqali ijtimoiy tenglikni barqarorlashtiradi. Qolaversa, soliq bazasini aniqlash tartibining

¹ Data from Taxing Wages 2023 (OECD), <https://oe.cd/taxingwages>

² 2019-yilda mamlakatni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasidan. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisiga-murojaatnomasi>

to'g'ri ishlab chiqilgan metodologiyasi qonunchilikka rioya qilish va ijro etish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytiradi. Bunda soliq to'lovchilar soliq tizimini adolatli va shaffof deb bilsagina, o'z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishi qimmatga tushadigan majburlov choralari bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi va umumiy soliq yig'ish samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan, soliq bazasini aniqlash tartib va bosqichlarini ilmiy-nazariy tadqiq qilgan holda amaliyotga tatbiq etish bugungi iqtisodiy islohotlar sharoitida dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-iyunda qabul qilingan PF-162-son "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi va Turizm va sport vazirligining 2022-yil 11-martdagi 3053-1-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq solinadigan bazasini alohida xarajatlari bo'yicha kamaytirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish borasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliq solish bazasi haqida o'z izlanishlar olib borilar ekan, mavjud soliq va yig'imlarning amal qilish mexanizmi, davlat byudjetiga tushish miqdori soliq solish bazasining hajmi, aniqlash tartibi va bazaga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liqligining guvohi bo'lish mumkin. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi va unga ta'sir etuvchi omillar haqida ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar, xususan, Y.Yefimova, Y.Pospelova, Y.Malish, Y.Shuvalova, V.Klimovskiy, A.Puzin, I.Mayburov, N.Milyakov, N.Smolyaninov, M.Pinskaya, O.Lazurina, Y.Lazurin, A.Yurchenko, S.Andryushenko, N.Gemmell, J.Hasseldine, P.Ozili, M.Hanlon, A.Klemm, A.Laffer, J.Stiglitz, R.Musgrave, G.Zukman, A.Goolsbee, J.Poterba, E.Sayez, R.Chetty, J.Slemrod, S.Giertz shular jumlasiga kiradi³.

³ Ефимова Е.Г., Поспелова Е.Б. Налоги и налогообложение: Учебное пособие. – М.: МИИР, 2014. – 235 с. ISBN 978-5-4349-0005-8; Малыш Е.В. Налоги и налогообложение : учеб.-метод. пособие / М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017. -112 с. ISBN 978-5-7996-2068-4; Шувалова Е.Б. Налоговые системы зарубежных стран учебно-практическое пособие / Е.Б.Шувалова, В.В.Климовский, А.М.Пузин. – М.: Изд.центр ЕАОИ,2010 . -134 стр. ISBN 978-5-374-00330; Налоги и налогообложение / И.А.Майбуров, 2017, 4-е изд. -558 с; Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложения / Под научн.ред. д.э.н., проф.Б.С.Барда: Морография. – М.:Издательство Палеотип, 2004.-216 с.; Миляков Н.В. Налоги и налогообложение: Учебник. - 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2006.

O‘z navbatida, mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida ham bu mavzu doirasidagi muammolarga e‘tibor qaratib kelinmoqda, masalan, Q.Yahyoyev, A.Ayubjonov, U.Salixodjayeva, O.Rashidov, I.Alimov, I.Toymuhamedov, R.Tojiyev, R.Husainov, A.Agzamov, F.Isayev dissertatsiya ishlari, darsliklari va ilmiy maqolalarida soliq bazasining ahamiyati va uni kengaytirish omillariga to‘xtalib o‘tishgan⁴. Qolaversa, A.Jo‘rayev va S.Shirinov ilmiy tadqiqotlarida soliq bazasini aniqlash usullari va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillar xususida so‘z yuritgan bo‘lsa, A.Vahobov va T.Malikovning izlanishlarida ham soliq bazasi tushunchasiga yetarlicha fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Jumladan, S.Xudoyqulovning “Moliya va soliqlar” darsligida “Soliq bazasi soliq obyektining bir qismi bo‘lib, u soliqlarning barcha tamoyillarini o‘zida aks ettirib, soliq obyektidan haqiqatda soliqqa tortiladigan qismini aniqlab beradi” deya soliq bazasi xususida mulohaza yuritilganini kuzatish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-5421033210-raqamli “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

509 с.; Смольянинов Н.Е. Основы теории налогов и налогообложения: учеб. пособие / Н.Е.Смольянинов; Уфимск. гос. авиац. техн. ун-т. – Уфа: УГАТУ, 2008. – 107 с.; Налоги и налогообложение: Учебное пособие / Под общей редакцией к.э.н., доцента Лазуриной О.М. – Ярославль: МФЮА, 2014. – 220 с.; Андрищенко С.Н., Налоговая база, как элемент налогообложения и основные методы ее определения // Структурно-инновационные и финансовые факторы модернизации экономики / Общ. ред. Спицина А.Т., Сулова И.Ф. – М.: Экономика, 2002. – (0,29 п.л.); Gemmell N., Hasseldine J. The tax gap: a methodological review. – Emerald Group Publishing Limited, 2012. – Т. 20. – С. 203-231.; Ozili P. K. Tax evasion and financial instability //Journal of Financial Crime. – 2020. – Т. 27. – №. 2. – С. 531-539.; Hanlon M. What can we infer about a firm's taxable income from its financial statements? //National Tax Journal. – 2003. – Т. 56. – №. 4. – С. 831-863.; Klemm A., Causes, benefits, and risks of business tax incentives //International Tax and Public Finance. – 2010. – Т. 17. – С. 315-336.; Laffer A. B. Government exactions and revenue deficiencies //Cato J. – 1981. – Т. 1. – С. 1.; Stiglitz J. E. On liberty, the right to know, and public discourse: the role of transparency in public life. – 1999.; World Bank, Musgrave R. A. Tax Analysis in Developing Country Settings. – World Bank, 1989.; Zucman G. The hidden wealth of nations: The scourge of tax havens. – University of Chicago Press, 2015.; Goolsbee A. Public policy in an AI economy. – National Bureau of Economic Research, 2018. – №. w24653.; Poterba J. M., Summers L. H. Dividend taxes, corporate investment, and ‘Q’ //Journal of Public Economics. – 1983. – Т. 22. – №. 2. – С. 135-167.; Chetty R., Saez E. An agency theory of dividend taxation. – 2007.; Saez E., Slemrod J., Giertz S. H. The elasticity of taxable income with respect to marginal tax rates: A critical review //Journal of economic literature. – 2012. – Т. 50. – №. 1. – С. 3-50.

⁴ Яхёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслик. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 2000; Ayubjonov A.H., Salixodjayeva U.A., Moliya statistikasi O‘quv qo‘llanma, 2019. – 239 b.; Rashidov O.Yu. va bosh. Pul, kredit va banklar. – Т.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011; Husainov R.R. Moliya va soliqlar. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2014; Agzamov A.T. Жисмоний шахсларни солиққа тортишнинг фискал самарадорлиги. //Халқаро молия ва ҳисоб. № 1, февраль, 2019 й.; Исаев Ф.И. Камерал солиқ текширувларини ўтказишда солиқ таҳлилидан фойдаланишни такомиллаштириш. //Иқтисодиёт ва таълим, 2021 йил, 4-сон.

Tadqiqotning vazifalari:

soliqqa tortish tizimida soliq bazasi, soliq bazasining mohiyati va uning nazariy asoslarini ko‘rib chiqish;

soliq bazasiga doir iqtisodchi olimlarning ilmiy nazariy yondashuv va qarashlarini tadqiq qilish asosida mualliflik yondashuvini shakllantirish;

jahon soliqqa tortish tizimi tajribasida soliq bazasini aniqlash tartibinining xususiyatlarini o‘rganish;

respublikamiz soliq tizimida mavjud bevosita soliqlarning bazasini aniqlash usullari va tartibini tahlil qilish;

respublikamiz soliq tizimida mavjud bilvosita soliqlar bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;

soliq siyosatining soliqlar bazasiga ta’sirini baholash;

O‘zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash va yechimini berish;

O‘zbekistonda soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirishda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yoritib berish;

O‘zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish istiqbollarini ko‘rib chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistondagi soliq to‘lovchi hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslarning soliqlar bazasi olinadi.

Tadqiqotning predmeti soliq solish bazasini aniqlash jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida statistik va iqtisodiy tahlil usullari, tahlil, analiz va sintez, SWOT tahlil, ijtimoiy so‘rovnomalar, ekonometrika modellaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘z egaligida ko‘chmas mulk sifatidagi turarjoy obyekti mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan mazkur turarjoy obyektini oliy ta’lim muassasasi talabasiga yashashi uchun uy-joy ijara shartnomasi asosida foydalanishga berishdan olingan daromadga soliq bazasida “soliqqa tortilmaydigan daromad” sifatida qarash lozimligi asoslangan;

foyda solig‘i bazasini aniqlash maqsadida o‘n ikki oydan ortiq vaqt mobaynida rekonstruksiya qilishda yoki modernizatsiyalashda bo‘lgan aktivdan soliq to‘lovchi tomonidan o‘z faoliyatida foydalanilmagan holatlarda amortizatsiya hisoblashning ushbu rekonstruksiya yoki modernizatsiyalash jarayoni tugallanguncha bo‘lgan davr oralig‘ida “vaqtincha to‘xtatib turish” tartibini joriy etish taklifi ishlab chiqilgan;

o‘quv-tarbiya muassasalariga, yetim bolalarga yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga xayriya yordami ko‘rsatish maqsadida qilingan moddiy xarajatlarini foyda solig‘i bazasida “chegiriladigan xarajatlar” sifatida yondashish taklifi ishlab chiqilgan;

tarkibida etil spirtining ulushi 40 foizdan yuqori bo'lgan alkogol ichimliklari uchun aksiz solig'i bazasini aniqlashda mazkur ichimlik tarkibidagi etil spirtining ulushidan kelib chiqib hisoblash taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“solliq bazasi” tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

solliq bazasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va ularning ta'sir doirasi asoslab berilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bazasini aniqlash uchun uy-joyni ijaraga berishda 1 metr kvadrat joy uchun solliq solish maqsadida belgilangan eng kam miqdorni bozor bahosidan kelib chiqqan holda aniqlash taklifi ilmiy asoslangan;

yuridik shaxslar foyda solig'i bazasini aniqlash jarayonida chegirilmaydigan xarajatlar sirasiga kiruvchi tabiiy kamayish normalari miqdorini faqatgina mutasaddi mutaxassis tashkilotlar tomonidan belgilanishi maqsadga muvofiqligi mazmunidagi taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy ahamiyatidagi taklif va tavsiyalardan kelgusida solliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va solliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy ahamiyatdagi taklif va tavsiyalardan mamlakat solliqqa tortish tizimida solliq bazasini aniqlash tartibini yanada takomillashtirish va kengaytirish orqali solliq yukini yanada optimallashtirish, davlat byudjetiga solliqli tushumlar miqdorini oshirish borasida amalga oshiriladigan islohotlarni belgilashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Solliq tizimida solliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish borasida berilgan takliflar asosida:

o'z egaligida ko'chmas mulk sifatidagi turarjoy obyektini mavjud bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan mazkur turarjoy obyektini oliy ta'lim muassasasi talabasiga yashashi uchun uy-joy ijara shartnomasi asosida foydalanishga berishdan olingan daromadga solliq bazasida “solliqqa tortilmaydigan daromad” sifatida qarash taklifi 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-sonli “O'zbekiston Respublikasining Solliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonuni mazmunida aks ettirilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Solliq Qo'mitasining 2023-yil 9-martda 19/10-27981-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida, respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari bilan ko'chmas mulk egalari o'rtasida

uy-joy ijara munosabatlari sezilarli darajada oshgan va 2022-yil davomida “E-ijara” elektron xizmatida hududlar miqyosida ijarada turuvchi talabalarning ijara shartnomalari soni 47730 tani tashkil etib, bu orqali 79989 ta talabani turar-joy bilan ta’minlash imkoniyatini yaratib bergan bo’lib, ko’chmas mulk egasi hisoblangan jismoniy shaxslar uchun foydalanilgan soliq imtiyoz miqdori 12798,4 mlrd. soʻmni tashkil etgan;

foyda soligʻi bazasini aniqlash maqsadida oʻn ikki oydan ortiq vaqt mobaynida rekonstruksiya qilishda yoki modernizatsiyalashda boʻlgan aktivdan soliq toʻlovchi tomonidan oʻz faoliyatida foydalanilmagan holatlarda amortizatsiya hisoblashning ushbu rekonstruksiya yoki modernizatsiyalash jarayoni tugallanguncha boʻlgan davr oraligʻida “vaqtincha toʻxtatib turish” tartibini joriy etish mazmunidagi taklifi 2021-yil 29-dekabrda OʻRQ-741-son “Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunida oʻz aksini topgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq Qoʻmitasining 2023-yil 9-martdagi 19/10-27981-son maʼlumotnomasi). Natijada, 2021-yilda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar (36874 ta korxonalar) foyda soligʻining bazasida amortizatsiya xarajatlari 33480,1 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, amortizatsiya qilinadigan aktivning hisoblash tartibini belgilash ishlari yanada takomillashishi natijasida 2022-yilda faoliyat yuritayotgan 41351 ta korxonaning foyda soligʻi bazasida amortizatsiya xarajatlari 46893,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, soliq bazasi 13413,2 mlrd. soʻmgacha qisqargan;

oʻquv-tarbiya muassasalariga, yetim bolalarga yoki ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga xayriya yordami koʻrsatish maqsadida qilingan moddiy xarajatlarini foyda soligʻi bazasida “chegiriladigan xarajatlar” sifatida yondashish yuzasidan berilgan taklif 2021-yil 29-dekabrda OʻRQ-741-son “Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunida oʻz aksini topgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq Qoʻmitasining 2023-yil 9-martdagi 19/10-27981-son maʼlumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida ushbu soliq turi bazasini aniqlash tartibi yanada takomillashgan va 2021-yilda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar foyda soligʻi bazasida 1 452,7 mlrd. soʻmlik chegiriladigan xarajatlar miqdori 2022-yilga kelib 10 %ga ortib, 1597,7 mlrd. soʻmga yetgan;

tarkibida etil spirtining ulushi 40 foizdan yuqori boʻlgan alkogol ichimliklari uchun aksiz soligʻi bazasini aniqlashda mazkur ichimlik tarkibidagi etil spirtining ulushidan kelib chiqib hisoblash haqida berilgan taklif 2022-yil 30-dekabrda OʻRQ-812-son “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunida joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq Qoʻmitasining 2023-yil 9-martdagi 19/10-27981-son maʼlumotnomasi). Bu taklif amaliyotga joriy etilishi natijasida, aksiz soligʻi bazasini aniqlash mexanizmini yanada takomillashtirilishiga erishilgan va 2022-2023 yillarning

yanvar-iyun oylarini mos ravishda taqqoslanganda, alkogol mahsulotlaridan toʻlangan jami aksiz soligʻi summasiga nisbatan etil spirtining ulushidan undirilgan soliq miqdori 6 foiz (33,9 mlrd. soʻm) dan 20 foiz (169 mlrd. soʻm) gacha keskin oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi koʻrsatib oʻtilgan boʻlib, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi hamda tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi, tuzilishi va hajmi toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Soliq bazasi va uni aniqlashning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda soliq bazasini aniqlashning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari, shuningdek, soliq solish bazasini aniqlash tartibida ilgʻor xorij tajribasi borasida oʻziga xos uslubiy yondashuvlar boʻyicha tadqiqot olib borilgan. Tadqiqot qamrovi soliq bazasini tushunish, uning turlarini, xususiyatlarini yoritib berish, bazani aniqlashning shakllanishi, unga taʼsir etuvchi omillar hamda jahon soliq amaliyotida bazani aniqlash tartiblarining tizimli metodlari, ularning funksional imkoniyatlari va meʼyoriy-huquqiy chegaralarining amaliy-tadrijiy holatini tadqiq etish va soliq bazasining konseptual xarakteristikasini ishlab chiqish singari masalalar ketma-ketligini oʻz ichiga olgan.


Soliq bazasi tushunchasi turli zamonlar va makonlarda “Soliq asosi”, “Soliq negizi”, yoxud “Soliq manbai” sifatida talqin qilinsa-da, biroq iqtisodiy jihatdan oʻz mohiyatini saqlab qolgan hamda oʻsha davr va makon xususiyatlaridan kelib chiqqan holda soliq tizimini tartibga solishda xizmat qilgan. Xususan, soliq bazasi tushunchasiga juda koʻp iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar oʻz izlanishlarida murojaat qilganlar hamda oʻz qarashlarini yoritib berganlar. Soliq bazasi tushunchasiga turli uslubiy yondashuv va nazariy qarashlar 1-jadvalda keltirilgan:

**Iqtisodchi olimlar tomonidan soliq bazasi bo‘yicha olib borilgan
ilmiy izlanishlar⁵**

Mualliflar	Soliq bazasi bo‘yicha bajarilgan ilmiy ishlar
I.T.Tarasov	Soliq bazasini soliqqa tortiladigan obyektidan ajratib, “Soliq solinadigan kapital” atamasini ishlatadi. “Soliq solinadigan kapital – soliq solish obyektini soliqqa tortish uchun o‘lchash natijasi bo‘lgan soliqqa tortiladigan birlikdir”, deb izohlagan
N.V.Milyakov	Soliq bazasini “Soliq solinadigan baza soliq solish obektining qiymati, jismoniy yoki boshqa xususiyatlari hisoblanadi. Ba’zi hollarda soliq solinadigan baza aslida soliq stavkasi qo‘llaniladigan soliqqa tortish obyektining bir qismidir”, deb izohlaydi
Adam Smit	“Soliqlar turli xil daromad va boylik manbalari bo‘yicha taqsimlanuvchi keng qamrovli soliq bazasi tizimi va har kim o‘z ulushini to‘lashi uchun soliqlarning bazasi oddiy va shaffof, minimal imtiyozlar bilan to‘la bo‘lishi kerak” g‘oyasini ilgari surgan
Artur Laffer	Soliq stavkalari va davlat soliq tushumlari o‘rtasidagi nazariy bog‘liqlikni yoritib berish orqali soliq siyosati, jumladan, optimal soliq stavkalari, soliq bazasini aniqlash bo‘yicha muhokamalar, soliq siyosatidagi o‘zgarishlar iqtisodiy o‘rish va soliq bazasiga qanday ta’sir qilishini tadqiq etgan
Milton Fridman	Keng soliq bazasi va past soliq stavkalari haqida bahs yuritgan. Uning fikricha, keng soliq bazasi soliq yukini jamiyat bo‘ylab bir tekis taqsimlaydi va muayyan guruhlar yoki tarmoqlarga tor soliq solinishidan kelib chiquvchi buzilishlarni kamaytiradi va bu uzoq muddatda umumiy soliq tushumlarining oshishiga olib kelishini ta’kidladi
A.S.Jo‘rayev., H.Abdullaev	Soliq bazasini “soliq asosi” deya talqin qilishgan va “Soliq asosi umumiy holda belgilangan soliqqa tortish davri mobaynida ma’lum hududdagi soliq to‘lovchilar va soliqqa tortish obektlarining yig‘indisi”, deya ta’rif berilgan.
A.V.Vaxobov., T.S Malikov	Soliqqa tortiladigan baza (asos, negiz) – unga nisbatan soliq stavkasi qo‘llanadigan daromad. Soliq to‘lovchining yalpi daromadidan amaldagi qonunchilik bo‘yicha taqdim etilgan soliq imtiyozlarini chegirish orqali aniqlanadi
Muallif ta’rifi	Soliq bazasi – jismoniy va yuridik shaxslar to‘lashi kerak bo‘lgan soliqlarni hisoblash uchun asos bo‘ladigan va soliq huquqida soliq solish obyektining soliqqa tortiladigan qismining miqdoriy ifodasidir. Soliq bazasi jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodalovchi muhim tushuncha hisoblanib, soliq to‘lovchi(lar) uchun soliq yuki hajmini aniqlash imkonini beradi hamda tegishli hududlarning soliq tushumlari hajmini prognozlash uchun alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning universal iqtisodiy va huquqiy vositasi hamdir

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadvalda keltirilgan fikrlardan jahonning barcha mamlakatlarida soliq bazasi tushunchasi keng qamrovli va davlat byudjetini boshqarishdagi muhim dastak ekanligini yoritib berishga harakat qilingan. Biroq kundan-kunga yangi xizmatlar, zamonaviy texnologiyalar, murakkab iqtisodiy munosabatlar vujudga kelayotgan bir sharoitda, soliq bazasining aniq funksional xususiyatlari haqidagi izohlar yanada kengayib bormoqda. Shunday ekan, mavjud ma'lumotlar va nazariyalarga tayangan holda olib borilgan izlanishlar natijasida soliq bazasining konseptual xarakteristikasi quyidagicha tasvirlanadi (1-rasm):




1-rasm. Soliq bazasining konseptual xarakteristikasi⁶

1-rasmda keltirilgan jihatlar soliq bazasining vazifasini soliq majburiyatlarini hisoblash uchun asos bo'lishi, soliq obyektining xarakteristikasi, davlat organlari uchun ishonchli statistik manba bo'la olishi va soliq to'lovchilarning iqtisodiy imkoniyatlarini ifoda etishi deb hisoblansa, soliqlarning iqtisodiy asosini aks ettirish hamda soliqqa tortiladigan daromad ko'rsatkichi bo'la olishliligi soliq bazasining xususiyatlarini tasvirlaydi. Qolaversa, soliq bazasining ko'rinish shakllari ham atroflicha olti turga bo'lingan holda izohlangan.

Shuningdek, soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar soliq tizimida adolat va aniqlikni ta'minlash, soliq qonunchiligiga rioya etilishini rag'batlantirish, samarali soliq ma'muriyatchiligini ta'minlash orqali soliqqa tortish bazasini belgilashda va soliq solinadigan bazaning yemirilishiga yo'l qo'ymaslikda asosiy o'ringa ega. Shu ma'noda har bir mamalakat o'zida mavjud qonunchilik bazasidan kelib chiqqan holda soliq siyosatini, soliq tizimini belgilasa-da, jahon tajribasida soliq bazasini aniqlashning qo'llaniladigan ba'zi umumiy usullari mavjud va bu 2-rasmda batafsil keltirilgan.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Jahon soliq tizimida qo'llaniladigan soliq bazasini aniqlashning umumiy usullari⁷


Ta'kidlash joizki, bu metodlar dunyoda soliq solinadigan bazani aniqlashda qo'llaniluvchi usullarning ba'zi misollaridir. Har bir mamlakat o'zining soliq tizimiga ega va har xil turdagi soliqlar bo'yicha soliq bazasini aniqlash uchun turli usullar kombinatsiyasidan foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Mamlakat soliqqa tortish tizimi tajribasida soliq bazasini aniqlashning amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston soliq tizimida mavjud bevosita va bilvosita soliqlarning tushumlar dinamikasi, ayni kunlardagi soliq tizimi qonunchiligi asosida soliq solish bazasini aniqlash holatining tahlili, bevosita tushumlarga ta'sir ko'rsatuvchi dastak hisoblangan baza va uni aniqlash tartibining xususiyatlari, har bir soliq turining bazasi va uni aniqlash tartibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibini qamrab olgan.

3-rasmda keltirilgan mexanizm asosida mamlakat soliq tizimidagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining, yuridik shaxslar foyda solig'ining, yer va mol-mulk soliqlarining bazasini aniqlash tartiblari va ketma-ketligi, bazani aniqlash uslubiyati va o'ziga xos xususiyatlari batafsil ko'rsatib berilgan bo'lib, bu jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va soliq qonunchiligiga oid boshqa normativ hujjatlar asosida uch bosqichni qamrab olishi ko'rsatilgan.

Yuridik shaxslar foyda solig'i bazasini aniqlash tartiblari bevosita soliqlar ichida eng dolzarbi hisoblanadi. Chunki, yuridik shaxslarning foyda solig'idan tushumlar miqdori davlat byudjetining samarali faoliyati uchun ham muhim dastak hisoblanib, izlanishlar natijasida shu narsa oydinlashadiki, foyda solig'ining umumiy solikli tushumlardagi ulushi qariyb, uchdan bir qismiga to'g'ri kelmoqda.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida bevosita soliqlarning bazasini aniqlash mexanizmi⁸

Yuridik shaxslar foyda solig'i bazasini aniqlash tartibi 3-rasmda batafsil keltirilgan bo'lib, bu tartib asosida soliq bazasini aniqlash jarayonida bazaga ta'sir etuvchi omillar ajratib olingan va tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan. Ya'ni, foyda solig'i bazasini aniqlash jarayonida uning hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar shartli ravishda 2 guruhga ajratib olingan va birinchi guruh bevosita omillari – xarajatlar, imtiyozlar va qayta qo'shiladigan xarajatlardan tashkil topgan. Ikkinchi guruh ta'sir etuvchi bilvosita omillar esa soliq siyosatidagi o'zgarishlar, soliq to'lovchilarning savodxonlik darajasi va huquqiy baza hisoblanadi.

Tadqiqot davomida ushbu ta'sir etuvchi omillarning tarkibidan kelib chiqib respublikada o'z faoliyatini olib borayotgan bir nechta korxononing foyda solig'i bazasi ko'rib chiqilgan. Xususan, "Angren Pack" Aksiyadorlik Jamiyati, "Sharq" aksiyadorlik kompaniyasi, "To'ytepa tekstil" MChJ, "Transyo'lqurilish" unitar korxonasi, "RWS Optimum" MChJlarida 5 yil davomida foyda solig'i bazasining o'zgarish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatilgan.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qonunchiligi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi korxonalarining 2017-2022-yillar foyda solig'i bazasining o'zgarish dinamikasi tahlili, mln. so'mda⁹

Korxonalar Ko'rsatkichlar	ANGREN PACK AKSIYADORLIK JAMIYATI					
	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Soliq to'langunga qadar foyda	1,355,417,862	2,655,550,222	4,372,803,996	(2,066,719,922)	(44,314,034,326)	1,840,952,314
Chegirilmaydigan xarajatlar	206,457,872	142,184,756	31,030,167	916,722,441	22,300,000	129,436,826
Imtiyoz	268,960,023	354,215,899	588,752,014			
Soliq bazasi	1,292,915,711	2,443,519,079	3,815,082,149	-	-	1,970,389,140
Soliq summasi	96,968,678	342,092,671	457,809,858	-	-	295,558,371
	SHARQ AKSIYADORLIK KOMPANIYASI					
Soliq to'langunga qadar foyda	905,846,493	1,083,190,696	8,559,010,668	902,934,311	1,115,451,109	1,001,855,652
Chegirilmaydigan xarajatlar	1,818,028,312	1,747,210,201	2,361,926,130	1,481,237,645	1,135,086,273	1,545,390,608
Imtiyoz						
Soliq bazasi	2,666,478,146	2,796,521,168	10,917,387,987	2,384,171,956	2,250,537,382	2,547,246,300
Soliq summasi	199,985,861	383,682,704	1,310,086,558	357,625,793	337,580,607	382,086,945
	RWS OPTIMUM MCHJ					
Soliq to'langunga qadar foyda	16,298,412,680	(2,147,962,228)	(1,612,674,032)	(802,409,360)	10,430,719,806	4,433,217,373
Chegirilmaydigan xarajatlar	288,654,857	79,723,801	45,653,350	926,095,646	554,006,653	378,826,861
Imtiyoz				61,843,143	3,454,190,914	1,758,017,028
Soliq bazasi	16,257,317,982	-	-	48,826,007	7,530,535,546	3,054,027,207
Soliq summasi	609,649,424	-	-	7,323,901	1,129,580,332	458,104,081
	TRANSYO'LQURILISH DAVLAT UNITAR KORXONASI					
Soliq to'langunga qadar foyda	103,615,128,000	2,208,450,990	82,249,144	(3,148,332,659)	(4,622,499,346)	103,514,465
Chegirilmaydigan xarajatlar	1,419,425,403	647,702,056	468,440,493	2,305,837,240	757,549,854	665,823,611
Imtiyoz						
Soliq bazasi	-	2,856,153,046	553,772,485	-	-	769,338,076
Soliq summasi	-	399,861,426	66,452,698	-	-	115,400,711
	TO'YTEPA TEKSTIL MCHJ					
Soliq to'langunga qadar foyda	150,250,000	110,000,000	-	1,065,227	(303,911,088)	(213,630,480)
Chegirilmaydigan xarajatlar	12,836,000		-	3,055,327	-	18,796,548
Imtiyoz	150,250,000					
Soliq bazasi	12,836,000	110,000,000	-	4,120,554	-	-
Soliq summasi	962,700	15,400,000	-	618,083	-	-

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadvalga ko‘ra, 2017-2022-yillarda “Angren Pack” aksiyadorlik jamiyatida foyda solig‘i bazasi 1 292 915 711 so‘mni tashkil etgan bo‘lib (2017-yil), bu 206 457 872 so‘m chegirilmaydigan xarajatlar va 268 960 023 so‘m imtiyoz hisobiga shakllangan. 2018-yilga kelib esa chegirilmaydigan xarajatlar o‘tgan yildagidan qariyb, ikki barobarga qisqargani (142,184,756 mln. so‘m) va imtiyoz summasi 354 215 899 so‘m bo‘lganligi hisobiga soliq bazasi o‘tgan davrdagiga nisbatan 2 marotabaga kengayib, 2 443 519 079 so‘mni tashkil etgan. 2019-yil ham bazada kengayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2020-2021-yillar pandemiya hisobiga yalpi tushum anchagina pastlagan, qolaversa qayta qo‘shiladigan xarajatlarning salmog‘i oshgani va hech qanday imtiyozlar berilmagani soliq bazasining salbiy ko‘rsatkichi bilan baholangan.

“Sharq” aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatida ham 2017-2022-yillarda soliq imtiyozlarining yo‘qligi hisobiga soliq bazasi katta o‘zgarishlarga uchramagan bo‘lsa-da, biroq qayta qo‘shiladigan xarajatlar miqdorining mavjudligi bazaga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Shuningdek, xuddi shunday holat “Transyo‘lqurilish” unitar korxonasi ham o‘z ko‘rsatkichlarini namoyish qilgan. Ko‘rish mumkinki, barcha foyda solig‘i to‘lovchisi hisoblangan ushbu korxonalar soliq bazasiga soliq imtiyozlari va xarajatlari darajasi o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan.

Jismoniy shaxslar daromad solig‘i ham davlat byudjetining solikli tushumlari qismidagi salmog‘i, deyarli 15 % bo‘lib, infratuzilmani rivojlantirish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, mudofaa va ijtimoiy ta‘minot dasturlari singari davlat tovar va xizmatlari uchun mablag‘larni taqdim etadi. Qolaversa, boyligni qayta taqsimlash, daromadlar tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirish, davlatlarning iqtisodiy xatti-harakatlariga ta‘sir qilish va makroiqtisodiy maqsadlarga erishish uchun fiskal siyosat vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida bevosita soliqlar bazasini aniqlash tartibining ilg‘or jahon amaliyotida global daromad usuli, hududiy daromad usuli, jadval, kompleks, cheklash va chegirma usullarining mavjudligi aniqlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida aralash usul qo‘llaniladi. Bu usul har xil turdagi daromadlar yoki chegirmalar bo‘yicha ma‘lum chegaralar yoki miqyosni belgilashni o‘z ichiga oladi.


Tovarning bahosida to‘lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar bilvosita soliqlar deb yuritilib, bu soliqlarning bazasini aniqlash xususiyatlari 4-rasmda tasvirlangan.



4-rasm. Bilvosita soliqlar bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari¹⁰

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4-rasmda keltirilgan bu xususiyatlar bilvosita soliqlar bazasini aniqlash jarayonida namayon bo‘luvchi asosiy jihatlar hisobladi. Xususan, bilvosita soliqlar, odatda, keng turdagi tovar va xizmatlarga nisbatan solingani uchun keng qamrovli sanaladi va bu soliq bazasi keng bo‘lishini va iqtisodiy faoliyatning katta qismini qamrab olishi bilan izohlanadi. Bu davlat byudjetiga katta miqdorda daromad keltirishga yordam bersa, daromad yoki boylikdan ko‘ra tovar va xizmatlar iste‘molidan olinishi bilvosita soliqlarning iste‘molga asoslanganlik xususiyatini namoyon etadi. Yuqorida ta’kidlangan xususiyatlardan kelib chiqib, quyidagi rasmda respublika soliq tizimida bilvosita soliqlarning bazasini aniqlash tartibi keltirilgan (5-rasm).



5-rasm. O‘zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar bazasini aniqlash mexanizmi¹¹

5-rasmda keltirilgan chizmada ayni kunlarda respublika soliq tizimidagi amalda bo‘lgan qo‘shilgan qiymat va aksiz soliqlari bazasini aniqlash tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, bunda aksiz solig‘i bazasini aniqlash jarayoni aksiz to‘lanadigan tovar (ish, xizmat) turiga va xususiyatiga qarab olib borilishi tasvirlangan bo‘lsa, qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasini aniqlash jarayoni uch bosqichli tarkibda shakllanish tartibi keltirilgan.

Aksiz solig‘i ham jahon soliq tizimining amaldagi soliq turlaridan biri hisoblanib, bazi iste‘mol tovar va mahsulotlariga, eng muhim xomashyolarga, inson sog‘lig‘i uchun zararli hisoblangan mahsulotlar, shuningdek, ba’zi ish va xizmatlar uchun davlat tomonidan solinadigan qo‘shimcha soliq turidir. Aksiz solig‘ining qadim zamonlardan to hozirgi kungacha keng qo‘llanilishining asosiy sababi uning aniq fiskal foydasi va ularni olish tezligi yuqoriligidir.


Bugungi kunda jahondagi ilg‘or tajribalardan foydalanib aytish mumkinki, soliq amaliyotida aksiz solig‘i bazasini aniqlashning to‘rt xil metodologiyasi

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qonunchiligi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

mavjud va ular hajmga asoslangan, qiymatga asoslangan, maxsus (spetsifik) stavka hamda advalor usullar deb e'tirof etiladiyu xususan, respublika soliq tizimida ikkinchi va to'rtinchi usullardan keng foydalaniladi.

Aksiz solig'i bazasini aniqlash jarayoning xususiyati shundaki, bu aksiz to'lanadigan tovar (xizmat)ga nisbatan qo'llanadigan soliq stavkasiga bevosita bog'liq. Ya'ni, agar soliq stavkasi qat'iy (mutlaq) summada bo'lsa, aksiz solig'ining bazasi uning natura shaklidan yoki miqdoridan kelib chiqiladi. Aks holda, aksiz to'lanadigan tovarlar(xizmatlar)ga soliq stavkalari foizlarda belgilangan bo'lsa, soliq bazasi realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan bevosita va bilvosita soliqlar bazasini aniqlash tartiblaridan anglash mumkinki, har bir soliq o'zining xususiyatiga muvofiq bazani aniqlash tartibiga ega va mos ravishda uning bazasiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi ham o'zaro farq qiladi. Bu omillarning umumiy tarkibi 6-rasmda keng izohlangan.



6-rasm. Soliq bazasini aniqlash tartibiga ta'sir etuvchi umumiy omillar tarkibi¹²

6-rasmda keltirilgan mexanizmida soliq siyosatidagi ma'lum o'zgarishlar har bir soliq turining bazasi va uni aniqlash tartiblariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi tasvirlangan hisoblanib, bazani aniqlash jarayonidagi umumiy omillar sifatida soliq siyosati orqali olib boriladigan soliqqa oid qonun-qoida va imtiyozlar chegarasi nazarda tutilgan.

Izlanishlar natijasida shu xulosaga kelish mumkinki, soliq bazasini aniqlash tartibi soliq siyosati bilan chambarchas bog'langan va bu bog'liqlik soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modellarini ishlab chiqishni taqazo etadi. Ekonometrik modelni ishlab chiqishda SEM regression modelidan foydalanilgan.

¹² Muallif tomonida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot doirasida Soliq qo‘mitasining o‘n uch yillik ma‘lumotlar to‘plamidan olingan ko‘rsatkichlar yordamida ekonometrik tenglama ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan ekonometrik tenglama bog‘liq o‘zgaruvchi va mustaqil o‘zgaruvchilar mos ravishda quyidagicha ifodalangan:

y – qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasi (yuridik shaxslar) – bog‘liq o‘zgaruvchi,
 x_1 – foyda solig‘idan soliq imtiyozi (yuridik shaxslar) – mustaqil o‘zgaruvchi,
 x_2 – qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozi (yuridik shaxslar) – mustaqil o‘zgaruvchi.

Tadqiqot bo‘yicha quyidagi gipoteza ishlab chiqilgan:

“milliy iqtisodiyotning soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlashda, foyda solig‘idan hamda qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozining ortishi qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasining kengayishiga olib keladi. Bunga ko‘ra, qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasida foyda hamda qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozining bog‘liqligi mavjud”.

Tadqiqot bo‘yicha SEM regression tenglamasi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan (3-jadval).

3-jadval.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasi va unga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi SEM regression tenglamasi¹³

	OIM				[95% Conf.	Interval]
	Coef.	Std.Err.	z	P>z		
Structural						
$y <-$						
x_1	0.444	0.147	3.030	0.002	0.156	0.731 ***
x_2	0.370	0.091	4.040	0.000	0.191	0.549 ***
<u>_cons</u>	0.922	0.867	1.060	0.088	-0.778	2.622 *
<u>var(e.y)</u>	0.009		0.003	0.004	0.019	

3-jadvalda keltirilgan SEM regression modeliga ko‘ra, mustaqil o‘zgaruvchilar koeffitsiyentlari mos ravishda 0,44 va 0,37 qiymatlarini tashkil etgan.

Bundan tashqari, tadqiqotda o‘tkazilgan strukturaviy tenglamani modellashtirish (SEM) tahliliga ko‘ra, bosh gipoteza ($H_0: y = 0$) ahamiyatga ega. Binobarin, alternativ gipoteza rad etiladi va e‘tibor statistik ahamiyatga ega bo‘lgan bosh gipoteza gipotezaga ($H_1: y \neq 0$) qaratilgan.

Tadqiqot bo‘yicha ishlab chiqilgan SEM regression modelining tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan:

$$y=0.44 x_1+0.37x_2+0.99 \quad (1)^{14}$$

Qo‘shilgan qiymat soliq bazasi va unga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi ekonometrik tenglamaga ko‘ra, foyda solig‘idan soliq imtiyozining 1 %ga ortishi qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasining 0,44 % ortishiga olib kelgan. Shuningdek,

¹³ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

¹⁴ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan


qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozining 1 %ga ortishi qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasining 0,37 % ortishiga sabab bo‘lgan.

“O‘zbekiston soliq tizimida soliqlar bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish masalalari” deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida esa soliq tizimida soliq bazasini aniqlash tartibi bilan bog‘liq mavjud muammolar aniqlangan va ularni takomillashtirish yechimlari bo‘yicha taklif va tavsiyalarning istiqbol darajasi taqdim etilgan.

Soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi qonun chiqaruvchi qo‘lidagi noyob vosita bo‘lib, soliq solinadigan bazani aniqlash qoidalaridagi kichik o‘zgarishlar soliqqa tortish darajasini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Binobarin, ayni paytda tez o‘zgarib borayotgan iqtisodiy voqelikni hisobga olganda, soliq tizimimizda soliq bazasini aniqlash tartib-qoidalari bilan bog‘liq qator muammolar paydo bo‘lgan.

Tadqiqot davomida muallif soliq bazasini aniqlashda duch kelinayotgan bugungi kundagi eng dolzarb masalalarni tadqiq etishga harakat qilgan.


Birinchidan, tadqiqot davomida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga oid soliq bazasini aniqlash jarayonida vujudga kelayotgan ba’zi holatlar aniqlandi. Xususan, Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida inson manfaatlari va sifatli ta’lim davlat siyosatida eng oliy darajaga ko‘tarilayotgan bir vaziyatda oliy o‘quv yurtlari talabalari bilim yurtlarida turarjoy yetishmasligining hisobiga ko‘p vaqtini boshpana qidirishga sarflamoqda. Ma’lumki, uyni ijaraga olish jarayonida mulk egasi talaba bilan shartnoma tuzishdan qochadi. Bu albatta, talabalarda barqaror bo‘lmagan moliyaviy ahvol va jismoniy shaxsning daromad solig‘ini to‘lashdan bo‘yin tovlash kabi sabablar bilan izohlanadi. Bunday vaziyatda davlat ijtimoiy himoya siyosatini oqilona yurgizish uchun soliq siyosatidagi imtiyoz choralarini qo‘llashini taqozo etadi. Ushbu muammoning yechimi sifatida berilayotgan taklif 7-rasmda o‘z aksini topgan va izohlangan.



7-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasini aniqlash mexanizmi¹⁵

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilga

